

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2022 - yil 1 - yanvar holatiga 878,6 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 17,7 ming kishiga yoki 2,0 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 374,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,6 %), qishloq aholisi soni 504,5 ming kishini (57,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2021 yil yanvar– dekabr

- Aholi soni **17,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **23,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **4,1mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **8,6 mingta nikoh** va **1,4 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2021 yil yanvar-dekabr oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2021-2022 - yillar 1– yanvar holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)

	2021 - yil	2022 - yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	860,9	878,6	102,1
Guliston sh.	91,3	93,5	102,4
Shirin sh.	18,9	19,0	100,5
Yangiyer sh.	44,2	45,3	102,5
tumanlar:			
Oqoltin	52,9	54,0	102,1
Boyovut	131,7	134,1	101,8
Guliston	78,5	80,0	101,9
Sayxunobod	74,1	76,0	102,6
Mirzaobod	67,0	68,3	101,9
Sardoba	75,1	77,1	102,7
Sirdaryo	130,1	132,3	101,7
Xovos	97,1	99,0	102,0


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022 - yil 1 - yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 134,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 % ni) va Sirdaryo tumanida 132,3 ming kishini (15,5 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 19,0 ming kishi (2,2%) va Yangiyer shahrida 45,3 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2022 - yilning mos davriga nisbatan Yangiyer shahrida 2,5 % ni, Sayxunobod tumanida 2,6 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shirin shahrida 0,5 % ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022- yil 1– yanvar holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2022- yil 1– yanvar holatiga, foizda, dastlabki ma'lumot)




Demografik holat

Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2022- yil 1– yanvar holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)

	erkak	ayol
Sirdaryo viloyati	441,1	437,5
Guliston sh.	46,8	46,7
Shirin sh.	9,3	9,7
Yangiyer sh.	22,5	22,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	27,2	26,8
Boyovut	67,9	66,2
Guliston	37,6	38,4
Sayxunobod	40,0	40,0
Mirzaobod	40,1	37,0
Sardoba	34,6	33,7
Sirdaryo	65,8	66,5
Xovos	49,4	49,6

Hududlar kesimida aholi zichligi (2022- yil 1– yanvar holatiga, 1 kv kmga to'g'ri keladigan aholi)



Demografik holat


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2021 - yilning yanvar-dekabr oylarida 23,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,7 promilleni tashkil etib, 2020 - yilning mos davriga nisbatan 2,0 promillega ko'paygan (2020 - yilning yanvar -iyun oylarida 24,7 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2021 - yilning mos davriga nisbatan Guliston shahar (24,0 promilledan 25,7 promillega), Oqoltin tumanida (24,2 promilledan 28,7 promillega), Yangiyer shahrida (23,4 promilledan 26,7 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Sayxunobod tumanida (25,3 promilledan 26,3 promillega) qayd etildi.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar– dekabr)



Demografik holat

Sirdaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (2021 - yil yanvar-dekabr)

	2020- y.	2021- y.	O'sish sur'ati % da
Sirdaryo viloyati	21053	23248	110,4
Guliston sh.	2182	2373	108,8
Shirin sh.	342	377	110,2
Yangiyer sh.	1024	1195	116,7
tumanlar:			
Oqoltin	1271	1531	120,5
Boyovut	3259	3545	108,8
Guliston	1890	2063	109,2
Sayxunobod	1969	2081	105,7
Mirzaobod	2037	2220	107,1
Sardoba	1726	1850	107,2
Sirdaryo	2965	3380	114,0
Xovos	2352	2633	111,9


Vafot etganlar



2021- yilning yanvar – dekabr oylarida 4,1 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etdi.


Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha

yanvar – dekabr



2021- yilning yanvar – dekabr oylarida 230 ta 1 yoshgacha go‘daklar o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 tirik tug‘ilganga go‘daklar o‘lim koeffitsiyenti 10,8 promilleni tashkil etdi.

Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha 1 yoshgacha vafot etganlar



Nikoh. 2021 - yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020 - yilning mos davriga nisbatan Guliston shahar (96,3 %), Sayxunobod tumanida (101,1 %), Sirdaryo tumanida (93,7 %), ga sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish Guliston (29,5 %), Mirzaobod (25,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2021 - yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,6 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2020 - yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer shahar (66,1 %), Xovos (66,2 %) va Oqoltin (43,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2021 - yil yanvar - dekabr)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	8064	9,3
Guliston sh.	954	10,3
Shirin sh.	139	7,3
Yangiyer sh.	482	10,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	500	9,4
Boyovut	1248	9,4
Guliston	696	9,3
Sayxunobod	743	9,4
Mirzaobod	712	9,4
Sardoba	574	8,5
Sirdaryo	1168	8,9
Xovos	848	8,6

Demografik holat

Hududlar kesimida ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2021 - yil yanvar– dekabr)

	Ajrim	Ajrim koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	1414	1,6
Guliston sh.	224	2,4
Shirin sh.	32	1,7
Yangiyer sh.	121	2,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	90	1,7
Boyovut	196	1,5
Guliston	120	1,6
Sayhunobod	77	1,0
Mirzaobod	94	1,2
Sardoba	72	1,1
Sirdaryo	230	1,8
Xovos	158	1,6

Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-dekabr)


	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2020 - y.	2021 - y.	O'sish sur'ati % da	2020 - y.	2021 - y.	O'sish sur'ati % da
Sirdaryo viloyati	8903	8064	90,6	1093	1414	129,4
Guliston sh.	968	954	98,6	192	224	116,7
Shirin sh.	149	139	93,3	29	32	110,3
Yangiyer sh.	536	482	89,9	85	121	142,4
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	576	500	86,8	58	90	155,2
Boyovut	1396	1248	89,4	147	196	133,3
Guliston	884	696	78,7	102	120	117,6
Sayxunobod	726	743	102,3	66	77	116,7
Mirzaobod	783	712	90,9	75	94	125,3
Sardoba	652	574	88,0	58	72	124,1
Sirdaryo	1230	1168	95,0	179	230	128,5
Xovos	1003	848	84,5	102	158	154,9

Migratsiya. 2021- yil yanvar - dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 10,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,4 ming kishi bo'lib, 2020 - yilning mos davrida minus 2,4 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2020 yil yanvar-dekabr	2021 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	7,1	8,7
Ko'chib ketganlar	9,5	10,1
Migratsiya saldosini	-2,4	-1,4

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Guliston shahar (minus 1,3 ming kishi), Boyovut tumanida (minus 0,5 ming kishi) qayd etildi.



Viloyat statistika boshqarmasi

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **N. Yuldoshev**
(67) 236-86-32